“UZXITAN” - qishloq xo’jaligida foydalanish uchun mo’ljallangan samarali preparat

Qishloq xo’jaligi amaliyotida kafolatlangan hosilni olish uchun o’simliklarni himoya qilish va o’sishini tartibga solishning kimyoviy vositalari faol qo’llaniladi. Bunday moddalar sifatida fitogormonlar va ularning sintetik analoglari, mikroelementlar, bakteritsidlar, fungitsidlar, akaritsidlar va boshqa biologik faol birikmalar qo’llaniladi. Ekishdan oldin urug’larni biologik faol birikmalar bilan ishlov berish usullarini ekologik muvofiqlashtirish va optimallashtirish tadqiqotchilar oldida turgan muhim vazifadir.

O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Polimerlar kimyosi va fizikasi instituti olimlari tomonidan ipak sanoati chiqindilaridan olingan xitozan asosida ta’sir ko’rsatuvchi faol moddaning KMTsdagi polimer preparativ shaklidan iborat bo’lgan “UZXITAN” preparati yaratilgan. Preparat quyidagi afzalliklarga ega:

Urug’larni ekish sifatlarini ortishi;

Sanitariya-gigienik mehnat sharoitlarining yaxshilanishi;

Import qilinadigan zaharli dorilash vositalarini zaharsiz vositaga almashtirish imkoni mavjudligi;

Nuqtali ekishni ta’minlash mumkinligi (15-30 kg/ga);

Hosildorlikning ortishi;

Dala sharoitidagi unuvchanlikning ortishi;

O’simliklar kasallanishining kamayishi;

Institutning tajriba bazasida “UZXITAN” polimer preparativ shaklini olishning tajriba-sanoat usuli o’zlashtirildi va uni qishloq xo’jaligi amaliyotida paxta, bug’doy va sabzavot-poliz ekinlari urug’lariga ekishdan oldin ishlov berishda urug’dorilagich sifatida qo’llashga ruxsat olindi. Hozirgi kunda “UZXITAN” preparati respublika fermer xo’jaliklarida muvaffaqiyatli qo’llanilmoqda.

Har yili korxonalar bilan shartnomalarga muvofiq qishloq xo’jaligi urug’larini (paxta chigitini) ekishdan oldin tayyorlash bo’yicha Institutning tajriba bazasida “UZXITAN” preparati ishlab chiqarilib, iste’molchilarga yetkazib berilmoqda.

Ta’lim va ilmiy-innovatsion imkoniyatlarni rivojlantirish, shuningdek, akademik va ilmiy almashinuvni amalga oshirishga ko’maklashish maqsadida Tojikiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Botanika, fiziologiya va o’simliklar genetikasi instituti bilan O’zR FA Polimerlar kimyosi va fizikasi instituti o’rtasida ilmiy-texnikaviy hamkorlik to’g’risida shartnoma tuzildi. Kelishuvga asosan qo’shma va xalqaro grantlar, nashrlar, monografiyalar tayyorlash, shuningdek, qo’shma genetik seleksiya dasturlarida foydalanish uchun agropolimer preparatlar, shu jumladan, nanoagropreparatlar almashinuvi bo’yicha ishlar olib borish ko’zda tutilgan.

Topinambur, bug’doy, dukkakli ekinlar kolleksiyasini, shuningdek, ikki respublika sharoitida o’simliklarning o’sish stimulyatorlari ta’sirini o’rganish bo’yicha olib borilgan qo’shma tadqiqotlar doirasida ishlab chiqilgan o’sishni rag’batlantirish ta’siriga ega bo’lgan “UZXITAN” urug’dorilagichi Tojikiston dalalarida birinchi sinovdan o’tdi. Tojikiston selektsioner-olimlari ushbu preparatni tajriba uchastkalarida qo’llaganlaridan so’ng, donli, dukkakli va sabzavotlarning hosildorligi 20-30 foizgacha o’sganligini ta’kidladilar.
(https://www.asiaplustj.info/ru/news/tajikistan/economic/20200922/tadzhikskie-selektsioneri-stimulyatori-uzbekskogo-proizvodstva-povisili-urozhainost-agrokultur-do-30#article-likeblock).

Ikki tomonlama asosda qo’shma ilmiy loyihalarni amalga oshirish, iqtidorli yosh xodimlar uchun yetakchi ilmiy markazlarda stajirovkalarni tashkil etish va boshqalar bo’yicha ilmiy-texnikaviy hamkorlik shartnomasi doirasida O’zR FA Polimerlar kimyosi va fizikasi instituti O’zbekiston va Tojikiston, shuningdek, Markaziy Osiyo mintaqasi respublikalari bilan aloqalarni mustahkamlash va yanada rivojlantirish yo’lida faol ish olib boradi.